

Date: 11th December-2025

BARQAROR TURIZMNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Jumaniyozov Lochinbek Ollabergan o'g'li

Ulashev Tolib Ilhom o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishning dolzarb masalalari haqida so'z boradi. Shuningdek unda turizm sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri ekanligi, uning iqtisodiy o'sishga, bandlikni ta'minlashga va milliy madaniyatni dunyoga tanitishga qo'shadigan hissasi yoritilgan. Maqolada barqaror turizmni rivojlantirish uchun ekologik muvozanatni saqlash, infratuzilmani takomillashtirish va mahalliy aholini jalb etish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Barqaror turizm, iqtisodiy rivojlanish, ekologik muvozanat, turizm infratuzilmasi, xalqaro hamkorlik, madaniy meros, turizm salohiyati, barqaror rivojlanish, iqtisodiyotga hissa.

Barqaror turizm atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni ta'minlashni maqsad qilgan turizmning zamonaviy shaklidir. Bugungi kunda turizm sektori O'zbekiston iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi esa mamlakatning global bozorlar bilan integratsiyalashuviga, xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Mazkur sohaga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, barqaror turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat sifatini yaxshilash mamlakatimizning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024-yil 18-iyuldagi PF102-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni barqaror turizmni mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishda dasturiy bo'lib xizmat qiladi. Farmonga muvofiq, Mamlakatimiz hududlarida yangi turizm industriyasi obyektlarini ko'paytirish orqali qulay sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon bozorida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, ichki turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transport logistikasidagi mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, turizm sohasida qulay tadbirkorlik muhitini yaratish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish kabi masalalar o'z aksini topgan.

Haqiqatan ham O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish, sohadagi turizm industriyasi obyektlarini ko'paytirish, investitsiya yaxshilash va milliy turizm mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda ushbu sohaning istiqbollari turizm sektorini xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga, ayniqsa atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, mamlaktdagi iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.



Date: 11th December-2025

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzuni o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni asosiy huquqiy manba bo'lib, unda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xorijiy turistlar oqimini oshirishga doir chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu hujjat mamlakatda barqaror turizmni rivojlantirish siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Turizmni rivojlantirishda moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar bir nechta olimlarning ilmiy maqolalarida keng yoritilgan (Chang, McAleer va Ramos, 2020; Dedkova va Gudkov, 2020; Mahmudi, va Mufid, 2023). Undan tashqari, turizm sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalarni moliyaviy rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va ularning istiqbolli maqsadlari ham ilmiy tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan (Gudkov va Dedkova, 2020; Shirvani, Luca, va Francini, 2020). So'nggi yillarda qilingan fundamental ilmiy tadqiqotlarda rivojlangan mamlakatlarda turizmni rivojlantirishni turli darajalarda qo'llab-quvvatlaydigan va moliyaviy rag'batlantiradigan moliyaviy subsidiyalar va qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy mexanizmlar ham muhokama qilingan (Gasic, Oklobdžija, Perić va Ilić, 2015; Musa, Jelilov, Iorember va Usman, 2021).

P. Butler – Barqaror turizm konsepsiyasi va uning amaliy qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlari mashhur. U ekologik muvozanatni saqlash va turistik hududlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga urg'u beradi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar turizmni moliyalashtirish sohasidagi tadqiqotga oid maqolalaridan olingan. Amaliy ma'lumotlar rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror turizm, iqtisodiy rivojlanishning muhim tarmog'i sifatida, mamlakatlarning umumiy iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Butunjahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barqaror turizm "turistlar, turizm industriyasi, atrof-muhit va mezbbon jamiyatning ehtiyojlarini qondirish bilan birga o'zining joriy va kelajakdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirini to'liq hisobga oladigan turizm" deb ta'riflanadi. Shu bilan birga, barqaror turizmning asosiy maqsadi – iqtisodiy manfaatlarni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirishdir. Barqaror turizm quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi: Atrof-muhitni muhofaza qilish: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik izlarni kamaytirish. Mahalliy aholi manfaatlarini ta'minlash: turizm sohasida ish o'rinlari yaratish va mahalliy mahsulotlarni rivojlantirish. Madaniy merosni saqlash: tarixiy va madaniy obidalarining saqlanishini ta'minlash. O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning o'zni beqiyosdir. Ushbu shaharlar tarixiy va madaniy merosga boy bo'lib, turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Yangi ekologik yo'nalishlar yaratish, masalan, ekoturizm va jamoat asosidagi turizm modellari, nafaqat mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratadi, balki sayyohlar uchun ham ekologik toza va ma'naviy




Date: 11th December-2025




qadriyatlarni hurmat qiladigan imkoniyatlar taqdim etadi. Bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mahalliy bizneslarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Barqaror turizm yo'nalishlari orqali, shuningdek, qishloq joylarida kichik va o'rta bizneslar rivojlanadi, bu esa jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Ekoturizmni rivojlantirish va turizmni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish, masalan, yashil mehmonxonalar va energiya samaradorligini oshiruvchi infratuzilma yaratish, O'zbekistonni dunyo bo'ylab yanada mashhur va raqobatbardosh turizm manziliga aylantiradi. Shu bilan birga, madaniy merosni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali mamlakatning turizm salohiyatidan maksimal darajada foydalanish mumkin bo'ladi. Barqaror turizm ayniqsa, qishloq joylarida va tabiiy resurslarga boy hududlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Bu soha mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratishga imkon beradi, ayniqsa, ekologik va madaniy yo'nalishlarda xizmat ko'rsatadigan kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bunga qo'shimcha ravishda, barqaror turizm orqali mahalliy mahsulotlar, hunarmandchilik va san'at rivojlanadi, shuningdek, turistik yo'nalishlar, tarixiy obidalar va madaniy merosni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalar jalb etiladi.

Masalan, 2023 yilda umumiy qiymati 9,5 trln. so'mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganligi hisobiga jami 9 492 ta yangi ish o'rni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta hotel faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish vositalari soni 5 526 taga yetdi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 458 taga yetdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ularning soni 2 649 taga yetdi. 2017-2023 yillar davomida O'zbekistonga xorijiy turistlar soni yil sayin ortib bordi. Xususan, 2017 yilda 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 6,6 mln. nafarni tashkil etdi. O'zbekistonga 2023 yilda kelgan xorijiy turistlarning 80,7 foizi qo'shni davlatlar, 11,5 foizi qolgan MDH davlatlari hamda 7,8 foizi boshqa davlatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

1-расм. Ўзбекистонга ташриф буюрган туристлар сони, минг киши



2-расм. Ўзбекистонга ташриф буюрган туристларнинг давлатлар кесимида улуши, фоизда



Манба: Статистика агентлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси



1- rasim. O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning davlatlar kesimida ulushi ,foizda


Turizmning barqaror yondashuvi, ta'lim va trening dasturlari orqali yangi mutaxassislar tayyorlashni ham o'z ichiga oladi. Buning natijasida, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning malakasi oshadi, yangi va innovatsion yechimlar

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida 15 mln. nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo‘ylab 21 mln. tashrif uyushtirildi. Ijtimoiy ko‘mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi. 2023 yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. doll.ni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 1,3barobar oshganini ko‘rsatadi. Shuningdek, turizm va unga yondosh sohalar yo‘nalishida 70 ming nafarga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir. Turizmning rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashini ta‘minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O‘zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o‘rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini qo‘lga kiritdi. 2023 yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog‘i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024 yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'lganligi munosabati bilan O'zbekistonga maxsus sertifikat berzdi



Date: 11th December-2025

Рис. 1. Динамика потоков посетителей-туристов в Республику Узбекистана по месяцам года в 2019 -2020 годах



2-rasim. O‘zbekiston Respublikasiga sayyohlar oqimi dinamikasi yil oylar bo‘yicha 2019-2020

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, barqaror turizm zamonaviy iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, balki tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga ham xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, barqaror turizm iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu sektor innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali yanada samarali faoliyat yuritish imkoniyatini beradi. Innovatsiyalar esa ekologik muhofaza, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish kabi muhim yo‘nalishlarda muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 18 –iyuldagi PF-102-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/>
2. Barqaror turizm. // <https://tourquality.uz/uz>
3. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalq farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. // <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/>
4. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi 2,5 baravarga oshiriladi.// <https://yuz.uz/uz/news/>
5. Jahon Sayyohlik Tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlari. www.unwto.org
6. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hisobotlari. www.uzbektourism.uz